

TAJRIBA GURUHIDAGI SIGIRLARNING EKSTERYER KO'RSATKICHLARI

Bahouddinxon Abulsaidov

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti doktorant*

Suleymanova Muxabbat

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti assistant*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qora-ola va qizil-ola tusli golshtin hamda qizil eston zotli sigirlarning tana o'lchamlari va tana tuzilish indekslari to'g'risida tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar keltirilgan.*

Annotation: *This article presents data obtained as a result of research on body dimensions and body structure indices of black and red Holstein and red Estonian cows.*

Kalit so'zlar: *Qoramol, golshtin, qizil eston, tana, tadqiqot, uslub, chorvachilik, eksteryer, indeks, naslchilik.*

Key words: *Cattle, Holstein, Red Estonian, Body, Research, Style, Animal husbandry, Exterior, Index, Breeding.*

Kirish. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzluksiz taminlash chorvador va mutaxassislar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4243-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4576-sonli va 2022-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-sonli qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Respublikamiz qoramolchiligida keyingi yillarda naslchilik bazasini mustahkamlash va yuqori mahsuldor sutbop podalar yaratish maqsadida qoramolchiligi rivojlangan Yevropa davlatlaridan turli mahsuldorlik yo'nalishidagi qoramollar keltirilib ularning biologik xususiyatlari keng o'rganilib kelinmoqda. Bu qoramollar mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy imkoniyatga ega. Lekin ular bunday mahsuldorligini faqat to'la qiymatli oziqlantirish va maqbul asrash sharoitlarida yuzaga chiqaradilar. Shuning uchun ham biz

respublikamizning janubiy hududi sharoitida ilk bor chetdan import yo‘li bilan olib kelingan qora-ola va qizil-ola tusli golshtin hamda qizil eston zotiga mansub qoramollarning eksteryer xususiyatlarini o‘rgandik.

Tadqiqotning maqsadi. Chetdan import yo‘li bilan olib kelingan, golshtin va qizil eston zotli sigirlarning, respublikamiz issiq iqlimli janubiy hududlarida tana o‘lchamlari va tana tuzilish indekslarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot obyekti. “Toshatov Normumin M” qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi sharoitida chetdan keltirilgan qora-ola va qizil ola tusli golshtin hamda qizil eston zotli sigirlar tadqiqot uchun obyekt qilib olingan.

Olingan natijalar. Hayvonlarning tashqi ko‘rinishi yoki tuzilishiga eksteryer deyiladi. Eksteryerni o‘rganish hayvonlarning tashqi ko‘rinishi yoki tana tuzilishi bilan ularning nasl sifati, mahsulot yo‘nalishi, mahsuldorlik darajasi, sog‘lomligi orasidagi bog‘lanishga asoslangan. Eksteryer yordamida hayvonlarning ko‘pgina biologik xususiyatlari va xo‘jalik foydali belgilari o‘rganilib tahlil qilinadi.

Hayvonlar eksteryerini o‘rganish natijasida ularning zoti, zotliliigi, jinsi, yoshi, mahsulot yo‘nalishi, mahsuldorlik darajasi, konstitutsiya tipi, konditsiyasi, sog‘lomligi va harakatchanligini bilish mumkin. Eksteryerni o‘rganish va baholash muhim zootexnikaviy tadbir bo‘lib, nazariy bilim va amaliy tajribani talab qiladi.

Eksteryer ko‘rsatkichlarini aniqlashni eng asosiy usuli sigirlarni tanasidan o‘lchamlar olish hisoblanadi.

Shuning uchun ham biz, o‘z tadqiqotlarimizda, sigirlardan muhim bo‘lgan 8 ta tana o‘lchamlarini olib quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning eksteryer ko‘rsatkichlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	Guruhlar					
	I		II		III	
	n=15					
	$\bar{X} \pm Sx$	Sv, %	$\bar{X} \pm Sx$	Sv,%	$\bar{X} \pm Sx$	Sv,%
Yag‘rin balandligi	136,2±1,24	3,91	134,6±1,16	3,71	127,7±1,12	3,68
Dumg‘aza balandligi	138,1±1,22	3,80	136,3±1,19	3,75	129,9±1,14	3,72
Ko‘krak kengligi	49,3±0,71	6,29	48,5±0,67	6,02	45,7±0,65	6,11

Ko'krak aylanasi	198,6±1,02	2,24	196,9±0,96	2,12	188,1±0,79	1,80
Ko'krak chuqurligi	72,7±0,99	5,92	72,4±0,95	5,73	69,9 ±0,92	5,65
Gavdaning qiya uzunligi	166,6±0,7	1,75	165,1±0,73	1,93	158,3±0,68	1,86
Orqa do'ng suyaklar kengligi	54,6±0,48	3,85	54,2±0,44	3,58	50,3±0,51	4,30
Poycha aylanasi	20,1±0,20	4,39	20,0±0,19	4,19	18,3±0,22	5,07

1-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, I tajriba guruhidagi qora-ola tusli golshtin zotiga mansub sigirlar o'z tengdoshlari, qizil-ola tusli golshtin va qizil eston zotli II va III tajriba guruhlaridagi sigirlardan yag'rin balandligi 136,2 sm ni tashkil etib o'z tengdoshlaridan tegishlicha: 1,6-8,5 sm, dumg'aza balandligi 1,8-7,2 sm, ko'krak kengligi 0,8-3,6 sm, ko'krak aylanasi 1,7-10,5 sm, ko'krak chuqurligi 0,3-2,8 sm, gavdaning qiya uzunligi 1,5-8,3 sm, Orqa do'ng suyaklar kengligi 0,4-4,3 sm va pocha aylanasi 0,1-1,8 sm ga tengdoshlaridan ustivorlik qilgan.

Ma'lumki, tana tuzilish indekslarini o'zaro solishtirish yordamida har xil jinsli, yoshli va mahsulot yo'nalishidagi hayvonlar eksteryeri tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Zootexniya amaliyotida, turli indekslar har xil maqsadlar uchun aniqlanadi. Sigirlar tanasining umumiy rivojlanganligini ifodalovchi indekslarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Uzunoyoqlilik indeksi sigirlar oyoqlarining nisbiy uzunligini ifodalaydi. Sut yo'nalishidagi sigirlarda mazkur indeks yuqori bo'lib, sigirlar yoshining ortishi bilan kamayib boradi. Cho'zinchoqlik indeksi sigirlar tanasining uzun yoki qisqaligini ko'rsatadi va yosh o'tishi bilan ortib boradi. Tos-ko'krak indeksi ham yosh o'tishi bilan ortib boradi. Ko'krak indeksi ko'krakning qanchalik darajada rivojlanganligini ko'rsatadi va yosh o'tishi bilan ortib boradi. Zichlik indeksi tirik vazn bilan bog'liq bo'lib, uning ortib borishini ifodalaydi. Suyakdorlik indeksi esa suyak sistemasini rivojlanganligini ifodalaydi. Olib borilayotgan tadqiqotlarimizning uslubiga binoan, olingan tana o'lchamlari asosida, tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indekslarini aniqladik.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indeksleri quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indeksleri

Indeksler	I	II	III
-----------	---	----	-----

Uzunoyoqlilik	46,6	46,2	45,3
Cho‘zinchoqlik	122,3	122,7	124,0
Ko‘krak	67,8	67,0	65,4
Tos-ko‘krak	90,3	89,5	89,1
Zichlik	119,2	119,3	118,8
Suyakdorlik	14,8	14,9	14,3

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning uzunoyoqlilik indeksi 45,3-46,6 % oralig‘ida bo‘ldi. Cho‘zinchoqlik, ko‘krakdorlik, tos-ko‘krak, zichlik va suyakdorlik indeksleri shunga mutanosib ravishda: 122,3-124,0; 65,4-67,8; 89,1-90,3; 118,8-119,2 va 14,3-14,9 % oralig‘ida bo‘lgan.

Xulosa. Olingan tana o‘lchamlari va hisoblangan tana tuzilish indekslaridan xulosa qilish mumkinki, I tajriba guruhidagi qora-ola tusli golshtin sigirlari o‘z tengdoshlari qizil-ola tusli golshtin va qizil eston zotli sigirlarga nisbatan biroz yirik bo‘lgan. Umuman olganda, tadqiqot uchun obyekt qilib olingan barcha tajriba guruhlaridagi sigirlar mutanosib tana tuzilishiga ega bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576 sonli qarori. // Toshkent. 2020-yil 29-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-120 sonli qarori. // Toshkent. 2022-yil. 8-fevral.
3. Ashirov M.E. Sutdor qoramollar seleksiyasi. Toshkent “Navro‘z”. 2017.
4. Кузякина Л.И. Изменение экстерьера и продуктивности коров черно-пестрой породы при голштинизации стад. // Зоотехния. 2005. №12.
5. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. 383 b.
6. Suleymanova, M., Rizayeva, D., & Khuseinova, M. (2023). Genetic testing of sheep for prolactin (PRL) gene. *International journal of biological engineering and agriculture*, 2(6), 74-78.
7. Бошмонов, С., Ризаева, Д., & Сулаймонова, М. (2023). Qo‘ychilikni hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 96-100.
8. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., & Бошмонов, С. С. (2023). Влияние молочной продуктивности каракульских овец разной окраски на живой вес и прирост ягнят. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 127-129.

9. Сулейманова, М. К. (2023). ВЫДЕЛЕНИЕ ДНК ПЦР МЕТОДОМ ИЗ ХРЯЩЕВОЙ ТКАНИ У ОВЕЦ РАЗНЫХ ГЕНОТИПОВ. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIIY JURNALI*, 123-131.
10. Ibrohimovna, T. N., & Uktamovich, G. I. (2023). THE COLLOQUIAL SPEECH IN ENGLISH LINGUISTICS. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(1), 76-78.
11. Абдурахмонов, А. Т. (2023). БАТАННИ СЕВМОҚ ИЙМОНДАНДИР!. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(1), 79-84.
12. Lazizbek G'ayratjon o'g, O. (2023). PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(1), 85-90.
13. Ibragimjanovich, T. I., Komiljon o'g'li, O. D., & Raxmatjon o'g'li, X. D. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY, MA'NAVIY VA MADANIY MEROSIMIZNING O 'RNI VA ROLI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1425-1427.
14. Ibragimjanovich, T. I., Komiljon o'g'li, O. D., & Raxmatjon o'g'li, X. D. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY, MA'NAVIY VA MADANIY MEROSIMIZNING O 'RNI VA ROLI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1425-1427.
15. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). YOSHLARGA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI SINGDIRISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 1209-1213.